

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash raisi



Sh.A. Ayupov

2026-yil 24 avgust

**Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash majlisining
2-son BAYONNOMASI**

2026-yil 21-avgust

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Sh.A. Ayupov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash) raisi.

Qatnashdilar:

Kengash a‘zolari, taklif etilganlar (*ro‘yxat bo‘yicha*).

Majlisda Kengashning barcha a‘zolari ishtirok etdi. Kengash majlisi vakolatli hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

“Dolzarb ilmiy tadqiqot natijalariga oid monografiya va kitoblar chop etish xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni ko‘rib chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida.

(Ayupov, Ashurov, Jo‘raboyev ... Ayupov)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi PQ-390-sonli qarori 7-ilovasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamg‘armasi mablag‘lari yo‘naltiriladigan xarajatlar yo‘nalishlari” tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-mayda 260-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizomning 6-bandiga asosan Jamg‘arma mablag‘lari yo‘naltiriladigan xarajatlarni moliyalashtirish tartibi Kengash qarori bilan tasdiqlanishi belgilangan.

Shunga muvofiq, Fanlar akademiyasining Jamg‘arma faoliyatini tashkil etish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda - Ishchi organ) va Axborot xizmati bo‘limi bilan

birgalikda “Dolzarb ilmiy tadqiqot natijalariga oid monografiya va kitoblar chop etish xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) loyihasi ishlab chiqildi.

Nizom loyihasi Fanlar akademiyasining vitse-prezidentlari va tegishli bo‘linmalari bilan kelishildi.

Shu bilan birga, Ishchi organning taklifiga muvofiq, Jamg‘arma mablag‘laridan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida 2026-yil uchun arizalarni talabgorlardan 25-avgustdan boshlab qabul qilishni belgilash taklif etilmoqda.

Nizom loyihasi ko‘rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun ilovaga muvofiq kiritilmoqda.

Kun tartibidagi masalani ko‘rib chiqib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Dolzarb ilmiy tadqiqot natijalariga oid monografiya va kitoblar chop etish xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi organning **2026-yil uchun arizalarni** talabgorlardan **25-avgustdan boshlab** qabul qilish taklifi ma‘qullansin.

3. Mazkur yig‘ilish bayonnomasi bilan belgilangan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Bayonni tuzuvchi:

Kengash kotibi M.Nazirov